

**SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING YAQIN SHARQ VA
KICHIK OSIYO DAVLATLARI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI****ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ СУЛТАНА ДЖАЛОЛИДДИНА
МАНГУБЕРДИ С СТРАНАМИ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА И МАЛОЙ АЗИИ****DIPLOMATIC RELATIONS OF SULTAN JALOLIDDIN MANGUBERDI
WITH THE STATES OF THE MIDDLE EAST AND ASIA MINOR****Abduhakim Abdusamad Baxtiyorovich***Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti kursanti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif sulton Jaloliddin Manguberdi harbiy harakatlarining bir bo'g'ini hisoblangan diplomatiyasiga, jumladan, Arab xalifaligi, Yaqin Sharq davlatlarida hukmronlik qilayotga ayubiyalar va Kichik Osiyodagi saljuqiylar sulolasi vakillari bilan olib borgan diplomatik aloqalari bayoni keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *xalifa an Nosir, Ziyo Buniyodov, al Malik al Muazzam, Qo'shtemur, al Malik al Ashraf, "As-sulton ul-a'zam Jalol ad-dunyo va-d-din"*

Аннотация: *В данной статье описывается дипломатия султана Джалалуддина Мангуберди, составляющая часть его военных действий, в том числе его дипломатические отношения с представителями Арабского халифата, правящими Ближним Востоком Айюбидами и династией Сельджуков в Малой Азии.*

Ключевые слова: *Халифа ан Насир, Зия Буниядов, аль Малик аль Муаззам, Коштемур, аль Малик аль Ашраф, «Ас-султан уль-азам Джалал ад-дунья ва-д-дин»*

Abstract: *This article describes the diplomacy of Sultan Jalaluddin Manguberdi, which is a part of his military actions, including his diplomatic relations with representatives of the Arab Caliphate, the Ayyubids ruling the Middle East, and the Seljuk dynasty in Asia Minor.*

Key words: *khalifa an Nasir, Ziya Buniyadov, al Malik al Muazzam, Koshtemur, al Malik al Ashraf, "As-sultan ul-azam Jalal ad-dunya va-d-din"*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev rahbarligida 2018-yil 20-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi institutida o'tkazilgan majlisda Jaloliddin Manguberdi siymosini, uning faoliyati tarixini manbalar asosida jiddiy o'rganish dolzarb ilmiy masala sifatida belgilab bergan edilar hamda bu qahramon haqida xolisona va chuqur ilmiy tahlil qilingan kitob yozish lozimligi to'g'risida fikr bildirgan edilar [2; 6, 220-b].

Xo'sh, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev sulton Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga alohida e'tibor qaratib tarixchilar oldiga bunday mas'uliyatli vazifani topshirdi? Bu mashhur tarixiy shaxsga chet el tarixchilari, jumladan Misr, Ozorbayjon, Turkiya tarixchilari qanday munosabat bildiradi? Ular XIII asr tarixini xolisona baholay olishmoqdammi? Aslida bu xalqlar boshidan kechirgan XIII asr voqealari ular tahlil qilgandekmi? Ushbu savollarni barchasiga quyida keltiriladigan xolisona tahlillarimiz orqali xulosa chiqarishimiz mumkin.

Uning (sultonning) niyati Erondan Gruziyaga qadar hududlarda Xorazmshohlar davlatini qayta tiklab Arab xalifaligi, Misr ayubiyolari va Ko'niya saljuqiylari bilan yagona islom bayrog'i ostida umumiy dushman bo'lmish mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashish edi. 1224-yilda Sulton Jaloliddin Iroq (Eron) da o'z hokimiyatini o'rnatishi bilan nigohini Ozorbayjonga qaratdi. 1225-yilda Tabrizni egallab, Ozorbayjon uchun katta xavf hisoblangan gurjilarni bir yoqli qilish kerakligini u yaxshi tushunar edi. Gurjilarga qarshi harbiy harakatlarni boshlashdan avval, Ozorbayjonni g'arb va janub tomondan xavfsizligini ta'minlash kerak edi. Shuning uchun sulton Jaloliddinni amalga oshirgan dastlabki tadbiri Ozorbayjonning Marog'a shahridaligida Mujiriddin Umar ibn Sa'd al Xorazmiyni elchi sifatida Rum, ash-Shom, Misr hukmdorlari huzuriga yuborish bo'ldi [3; 163, 393-b.]. Bu vaqtda Rumda Alouddin Kaykubod I (1219-1236), ash-Shomda al Malik al Muazzam (1218-1227), Jazirada al Malik al Ashraf, Misrda al Malik al Komil (1218-1236) larning hukmronliklari o'rnatilgan bo'lib, ash-Shom, Jazira va Misrda o'zaro nizoda bo'lgan aka-uka ayubiyalar hukmronlik qilishardi. Misr ayubiyolari va Ko'niya sultonlariga yuborgan elchisi orqali sulton Jaloliddin Ozorbayjonda o'z hokimiyatini o'rnatganligini va gurjilar yurtiga hujum qilish niyatida ekanligini ma'lum qilish edi.

Yuqorida nomlari keltirilgan sultonlar orasida faqatgina Damashq hukmdori al Malik al Muazzam birinchilardan bo'lib sulton Jaloliddin bilan diplomatik aloqalarini yo'lga qo'yishga uringan. Al Malik al Muazzamning asl maqsadi aka-ukalariga qarshi ittifoqchi sifatida sulton Jaloliddinga yaqinlashish edi. Al Malik al Muazzam 1222-yildayoq hali sulton Eron hududiga kirib kelmasdanoq uning huzuriga as-sadr al Bakriy boshchiligida so'fiylardan iborat elchilarni yuborib ittifoqdoshlik shartlarini tuzadi [6; 207-b.]. Sulton ham Al Malik al Muazzamga xalifalikka qarshi ittifoqdosh sifatida qarar edi. Chunki xalifalik imkoniyat tug'ulgudek bo'lsa sultonga nisbatan keskin chora ko'rishga harakat qilar edi. (Xalifa an Nosir buni isbotlagan.) Sulton Jaloliddin bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish sultondan ko'ra Al Malik al Muazzam uchun ko'proq manfaat keltirar edi. 1225-yilda sulton Marog'ada elchisini Damashqqa yuborganida Al Malik al Muazzam o'zi bilan birgalikda hatto Irbil hukmdori Muzafariddin Ko'kbo'rini ham sulton bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga undaydi, hatto bu ikki hukmdor sulton

Jaloliddin nomini xutba va tangalarida eslata boshlaganlar. Bu esa ularning sultonga amalda tobeligini anglatar edi. Sulton yuborgan elchilik munosabatiga javoban Al Malik al Muazzam o'zi va Irbil humdori nomidan ukasi Hilot va Jazira hukmdori al Malik al Ashrafga qarshi ittifoq tuzishga tayyorligini bildiradi [6; 206-b.].

Ayubiy hukmdorlardan al Malik al Ashrafning sulton bilan diplomatik aloqalarida hatto qandaydir manfaat yo'lida bo'lsa ham yaqinlashishni uchratmaymiz. Bu tabiiy hol albatta. Chunki sulton al Malik al Ashrafning asosiy raqiblaridan bo'lmish akasi al Malik al Muazzamning ishongan ittifoqdoshi edi. U esa bu ittifoqqa qarshi xalifa bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi. Bu holat sultonning al Malik al Ashrafga nisbatan munosabatiga ta'sir qilmasdan qolmasdi albatta. Munosabatlarning keskinlashib ketishiga olib kelgan muhim omil bu Suriya hududidagi Sevan ko'li atrofida joylashgan Hilot qal'asi uchun sultonning qilgan harakatlari bo'ldi. Bu qal'ani egallashga sultonni nima majbur qildi? Manbalarni kuzatsak al Malik al Ashrafning Hilotdagi noibi Hojib Alining sulton mulklariga qilgan tajovuzi sabab bo'lganligi ko'rinadi [4; 241-b.]. Bu sabab go'yoki sahnani berkitib turgan parda singari uning ortidagi haqiqatni yashiradi. Aynan sultonning Hilot qal'asiga qilgan harbiy harakatlarini sababini tadqiqotchi olim Qudrat Masharipov quyidagicha izohlaydi: "Manbalardagi ma'lumotlarni kengroq tahlil qilib ko'rsak, Jaloliddinning Hilotni egallashi masalasida bizningcha to'g'ri xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, bu qal'a xorazmshoh raqiblaridan bo'lmish ayyubiylarning eng muhim tayanch nuqtasi edi. Shu jihatdan ham uni egallash tajribali sarkarda Jaloliddin uchun faqat o'jarlikdan yoki qasd olish uchun zarur bo'lmasdan, uning uchun ham bu shahar strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Aynan shu sababga ko'ra Jaloliddin bu shaharni egallagandan so'ng darrov tiklashga kirishib ketadi..." [2; 220-b.]. Shuning uchun Sulton Hilotga harbiy harakatlarni amalga oshirishdan avval shahar boshqaruvchilarini huzuriga chorlab shaharni talofatsiz olishga urinadi. Ammo ular bo'yin egishga rozi bo'lmay sultonni haqoratlaydi [1; 398-b.]. Shundan keyin sulton harbiy harakatlarni boshlashga majbur bo'ladi. Aynan mana shu shahardagi g'alabasi sultonning so'ngi g'alabasi bo'ldi va bu g'alaba uning bundan keyingi harakatlari uchun to'siq bo'ldi. To'siq bo'lishi shuki, Kichik Osiyo va Yaqin Sharq hukmdorlari sultonning asl maqsadini tushinib yetishga harakat qilmay, uning Hilotga nisbatan harakatlarini o'zlari uchun xavf deb bildi va unga qarshi xuddi o'zi o'tirgan shohga bolta urgani singari o'zaro ittifoq tuzishi edi.

Kichik Osiyo hukmdorlari bilan ham sultonning aloqalarida Alouddin Kayqubodning sultonni o'zi uchun katta xavf deb bilishi, sulton Jaloliddindan Misr ayubiylari, gurjilar, mo'g'ullar va Alamutdagi ismoiliylarga qarshi qurol sifatida o'zidan uzoqroq masofada ushlab turish orqali foydalanishga urinishlari

kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek sulton Jaloliddin Marog'ada vaqtida Ozarboyjonni janub va g'arb tomondan xavfsizligini ta'minlash maqsadida Kichik Osiyo va Misr sultonlariga maktublar yuborgan edi. Maktubning mohiyati Islom yo'lida do'stlikka chaqiriq, hamkorlikni kuchaytirish ruhida yozilgan edi [3; 393-b.]. Kichik Osiyoda Ko'niya sultoni Alouddin Kayqubod I elchini iliq kutib oladi. Hatto sulton Jaloliddin Alouddin Kayqubod I bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun qarindoshchilik rishtalarini bog'laydi. Ya'ni sulton Kayqubodning o'g'li G'iyosiddin Kayxusrav II (1236-1245)ga Sheroz hukmdori Abu Bakr ibn Sa'd (1226-1260) ning qizini olib beradi [3; 393-b.]. (1224-yilda sulton Jaloliddin Abu Bakr ibn Sa'dning singlisiga uylangan edi.) Kayqubod ham sulton Jaloliddin huzuriga o'z elchisi Salohiddinni yuboradi va bu elchi sulton bilan Alouddin nomidan muzokaralar olib boradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek Alouddin Kayqubod I sulton bilan aloqalarni o'rnatishda o'zi uchun xavf deb bilgan Ismoililar, ayubiylar va mo'gullarga qarshi qalqon sifatida foydalanishni ko'zlagan edi. Xo'sh Alouddinni ismoililar bilan qanday muommosi bor edi? Ismoililar hukmdori Alouddin Muhammad III o'zining tahlikali harakatlari bilan Suriyadagi noibi Mujiriddin orqali Alouddin Kayquboddan yiliga 2000 dinor to'lab turishini talab qilgan edi. Mana shunday muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun sulton Jaloliddin Iroqda vaqtida vazir Sharafulmulk huzuriga Alouddin Kayqubod I ning vaziridan elchi keladi. Maktub orqali Alouddin Kayqubod I sultonga qanday yordam kerak bo'lsa berajagini ma'lum qilgandi. Shuningdek maktubi orqali musulmonlarning asosiy raqibi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashishi kerakligini aytib ochiqchasiga sultonni mo'g'ullarga qarshi kurashishga undagan edi.

Sulton Jaloliddinning Yaqin Sharq hududiga kirib kelishidan saljuqiylar va ayubiylar singari xalifalikni ham bezovta qilib qo'ygan edi. Sulton Jaloliddinning Afg'oniston va Hindistonda olib borgan harbiy faoliyatlari davomida xalifalik bilan samarali aloqalarini kuzatmaymiz. Biroq 1224-yilda Eronda hukmronligini o'rnatganidan keyin mo'g'ul bosqinchilariga qarshi turishdek katta ishonch sultonni xalifalik bilan munosabatlarni yaxshilash uchun harakat qilishga undadi. Biroq shu o'rinda, xalifa an Nosirni diplomatiya sohasida kamchiliklarga yo'l qo'yganiga guvoh bo'lamiz. Albatta biz ma'lumotlarni keltirishda dastlab birlamchi manbalar va tadqiqot natijalariga tayanamiz, ammo manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni har doim ham to'g'ri deb qabul qilishga shoshilmasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi har qanday manba o'sha davr siyosiy muhiti bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Masalan, Sulton Jaloliddin bilan xalifa an Nosir o'rtasidagi munosabatlarda xalifani faoliyatini ijobiy baholamadik. Chunki Juvayniyning ma'lumot berishicha Sulton Jaloliddinni Shoburxosdan Bag'dodga tomon yo'lga chiqqanida sultonning dushmanga (mo'g'ullarga) qarshi kuchlarni

birlashtirish taklifi bilan yuborgan maktubiga xalifa quloq osmadi va kelishish o'rniga amir Qo'shtemur boshchiligidagi yigirma ming kishilik qo'shinni sultonga qarshi yubordi. Muarrix bunga sabab qilib, xalifa avvallari sulton Jaloliddinning otasi va bobosining o'ziga nisbatan qilgan qilgan ishlarini haliyam unutmaganligini ko'rsatadi [1; 382-b]. Qaysidir ma'noda bu to'g'ri. Chunki xorazmshoh Takash 1200-yilda Bag'dod ustiga yurish qilgan edi [5;72-b]. Ammo mo'g'ul bosqinchilaridek katta xavfning yaqinlashib kelayotganligini hisobga olsak, bu vaziyat xalifaning Jaloliddinning otasi va bobosini qilgan ishlarini eslab, araz urub, tor doirada fikrallashni taqazo qilmasdi. Baholanki bu vaqtga kelib xalifa bilan doimiy nizoda bo'lgan sulton Muhammad Xorazmshoh ham, uning davlati ham yo'q edi.

Tarixchi olim Ziyo Buniyodov ham sultonning xalifa bilan munosabatlarini yoritishda chalkashlikka yo'l qo'ygani guvoh bo'lamiz. Uning ma'lumotlariga qaraganda Jaloliddinning xalifadan qasos olishdek maxfiy niyati ham bo'lgan. Hatto ayubiylerden al Malik al Muazzamga maktub yo'llab, uni xalifa an Nosirga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rishini so'ragan [6; 207-b]. Bundan ko'rinadiki go'yoki ikki o'rtadagi munosabatlarni chigallashtirishda sulton aybdordek. Ammo al Muazzamga ushbu maktub xalifaga sultonning yordam so'rab yozgan maktubini javobsiz qoldirgani va yordam o'rniga Jaloliddinga qarshi Qo'shtemurni qurollantiganidan keyin yozilganini hisobga olsak maqsadga muvofiq bo'ladi [6; 207-b]. Buning ustiga agarda, sulton Jaloliddinning Bag'dodni egallab xalifani taxtdan ag'darish niyati bo'lganida Qo'shtemurni mag'lubiyatga uchratib, Bag'dod atrofida o'n ikki kun tur-gan vaqtida askarlariga Bag'dodga hujum qilishiga ruxsat bergan bo'lar edi.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Jaloliddinning shaxsiy kotibi Shihobiddin Muhammad an Nasaviyning ma'lumot berishicha, sulton Jaloliddin Hindistondan eronga kelganidan keyingi dastlabki yozishmalarida xalifa an Nosirga "Sizning itoatgo'y sodiq xizmatkoringiz sulton Sanjarning o'g'li Manguberdi" deb murojat qiladi. Xalifa esa maktublarida "Muxtaram janob xoqon" deb murojat qilardi. Bu esa sultonga yoqmasdi va o'zini sulton deb atashini talab qilardi [3; 351-b]. Oliy devondagilar esa bu taklifni qabul qilmaydilar. Sababi yuqorida ta'kidlaganimizdek xalifa an Nosir Jaloliddinni xuddi otasi kabi o'zi uchun katta xavf deb bilar edi. Sulton Jaloliddin o'zi zarb ettirgan tangalarda "As-sulton ul-a'zam Jalol ad-dunyo va-d-din" degan so'zlarni yozdirgan. Xalifa unga sultonlik unvonini bermaganligi uchun sulton ham uning nomini zarb ettirgan tangalariga yozdirmagan [5; 74-b]. Xalifa an Nosir shu darajagacha yetdiki, hatto o'zi yoqtirmagan Jazira hukmdori al Malik al Ashrafga Jaloliddinga qarshi ittifoqdosh sifatida murojat qiladi [6; 207-208-b.]. Shuning uchun ham al Malik al Ashraf Jaloliddin bilan dastlabki vaqtlarda diplomatik aloqalar o'rnatishga

shoshilmagan. Chunki unga akasi al Muazzamga qarshi turish uchun xalifa an Nosir va katta akasi Misr hukmdori al Malik al Komildek ittifoqdoshlar bor edi.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, Misr, Suriya va Jazirada hukmronlik qilayotgan ayubiyalar sulolasi vakillari ham, Ko'niya saljuqiylari va xalifalik ham sulton Jaloliddinning maqsadini to'g'ri baholay olishmadi. Aksincha ular bir birlariga qarshi adovati tufayli sultondan foydalanishga yoki mo'g'ullar bosqiniga qarshi turadigan himoyachi devor sifatida ko'rishga intilishdi. Al malik al Muazzamda sultonga nisbatan sidqidildan sodiq bo'lishdan ko'ra o'z manfaati yo'lida ittifoq tuzish hissi kuchliroq bo'lgan. Bu tabiiy hol edi. Chunki qondosh aka-ukalar o'rtasida umumiy xavfga qarshi birgalikda kurashish u yoqda tursin, ular mol mulk talashib o'zaro murosaga kelisha olmasdi.

Xalifalik bilan sulton Jaloliddin o'rtasidagi munosabatlar doimiy ravishda barqaror bo'lmagan. Ayrim mualliflar xorazmshohlarni ikki o'rtadagi muommoni faqat saljuqiylarning merosxo'ri bo'lib qolgan va xuddi ulardek (saljuqiylardek) xalifalikni o'zlarining ta'sir doirasida tutib turishga haqli hisoblab intilishida deb takidlashadi. Biroq yuqorida takidlaganimizdek sulton Jaloliddin davrida vaziyat tubdan o'zgargan edi. Keyinchalik xalifalik bilan sulton Jaloliddin o'rtasidagi munosabatlar har qancha yaxshilangandek ko'rinsada, biroq sulton Jaloliddin umrining so'ngi daqiqalarida ham mo'g'ullarga qarshi kurashda xalifalikdan hech qanday yordam ololmagan.

Xalifalikni nafaqat xorazmshohlar bilan, balki boshqa yirik musulmon davlatlari bilan ham aloqalari aytarli darajada yaxshi bo'lmagan. Masalan Ayubiyalardan Al Malik al-Ashraf va xalifa an Nosir o'rtasidagi aloqalar 1225-yildan keyin, ya'ni sulton Jaloliddinning Yaqin Sharq mintaqasi atrofida paydo bo'lishi munosabati bilan yaxshilanadi. Alamutdagi Ismoililar bilan ham xalifalikning aloqalarini yaxshi bo'lgan deb bo'lmaydi. Chunki Ismoililar xorazmshohlar va xalifalikning kuchsizlanishidan foydalanib, ularga tegishli bo'lgan ko'pgina hududlarni bosib olishni mo'ljallagan edi. Ko'niya sultonligi bilan xalifalik o'rtasidagi diplomatik aloqalarni sezilarli darajada rivojlanganligini manbalarda uchratmaymiz. 1227-yilda Mag'ribdan al Mahdiylar tomonidan kelgan elchiga sultonning iliq munosabati Abbosiylar xalifasiga ma'qul kelmagani xalifalikni Mahdiylar bilan ham munosabatlarida ziddiyatlar borligini ko'rsatishini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Bu holat keyinchalik mo'g'ullar bosqini davrida xalifalik uchun ham qimmatga tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. / Tarjima va soʻz boshi muallifi Nazarbek Rahim, Mursal Oʻzturk. T.: Mumtoz soʻz, 2015.
2. Машарипов Қ. Жалолиддин Мангуберди – буюк ватанпарвар саркарда. – Б. 307.
3. Nasaviy Shahobiddin Muhammad. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti / Tarjima va soʻz boshi muallifi Matyoqubov Kamol. T.: FAN, 2018.
4. Рашидаддин. Сборник летописей. – С. 241;
5. Soburova S. Anushtagin-Xorazmshohlar davrida Xorazm (1097-1231 yy.). – T.: 2008.
6. Ziyo Buniyodov Anushtegi Xorazmshohlar davlati/ Tarjima va soʻz boshi muallifi A.Ahmad va M.Mahmud. T.: Adabiyot va sanʼat, 1998.